

UDK 378.091.33:741/744

ORC-ID: 0000-0002-2208-7827



**TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI SINERGETIK
KOMPETENTLIK ASOSIDA INTEGRATSIYALSH.**

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Alfraganus universiteti Umumkasbiy

fanlar kafedrası (PhD) dotsenti

b.haqberdiyev@afu.uz

+998(90)109-09-70

Annotatsiya: *Ushbu manbada texnik va san'at fanlarini turli fanlar bilan aloqadorligini takomillashtirish, sinergetik kompetentlik asosida fanlarni integrativ yondashuvidagi bilimlar berish shu bilan birgalikda pedagogik usullar yordamida mavzular va ularning maqsadlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Texnika, san'at, fan, sinergetika, yondashuv, kompetentlik, ta'lim, integratsiya, faoliyat, guruh, nazorat, g'oya, loyiha.*

Dunyo va yurtimiz oliy ta'lim tizimlarida keng ko'lamda yangilanishlar, takomillashtirishlar yuz bermoqda. Ta'limning bugungi dolzarb vazifasi - talabalarda kelajakda o'z-o'zini tarbiyalash bilan faol shug'ullanish, "faoliyatning yangi turlarini o'zlashtirish va natijada hayotda muvaffaqiyat qozonish" ga imkon beradigan bir qancha fazilatlarni va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Texnik va san'at mutaxassisligi ta'lim yo'nalishiga dars beradiga professor-o'qituvchilarga oliy ta'lim muassasalarida sinergetik kompetentlikka asoslangan fanlarni integrativ yondashuvidagi bilimlar berish hamda ko'nikma va malakalarini oshirishga alohida soatlar ajratilmagan, texnik va san'at fanlarini turli fanlar bilan integratsiyasida aloqadorligi o'rganilayotgan fanlar o'quv kontentlarini sinergetik kompetentlikka oid bilimlar orqali yanada boyitish, ustirish va takomillashtirish muammolari birtalay va yechimini kutmoqda.

Texnik va dizayn fanlari o'quv mashg'ulotlarida o'zlashtirilib borilayotgan integrativ bilim va malakalarni, sinergetik kompetentlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni nazorat, tahlil etib borish maqsadida o'zaro integratsiyalash asosida tushunib borishlarida, ularning tasavvur, ijod, mantiqiy fikrlash, nostandart vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalana olishlarida ta'limiy maqsadlarga erishish omili ekanligi aniqlanilishi lozim.

Texnik va san'at fanlarini integratsiyalab o'qitishda talabalarning grafik va ijodiy faolligini oshirishning muhimligi ayon, chunki talabalarda o'z-o'zini tashkillashtirish

ko'nikmasi shakllanmagan va ular o'z imkoniyatlariga ishonmaydilar. Bu xususiyatlarni inobatga olgan holda ijodiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular talabalarning texnik fanlar o'quv mashg'ulotlarida talabalarning ijodiy faolliklarini oshirish, san'at fanlariga doir tushunchalari bilan o'zaro integratsiyalangan holda sinergetik kompetentlik imkonini beradi. Ularni tuzishda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- nostandartlik (ma'lum vazifani echimini original yo'li);
- muammoli o'qitish elementlarini mavjudligi;
- bosqichli bajarish;
- topshiriqlarni murakkablashtirib borish.

Sinergetik kompetentlikda fanlarni integrativ yondashuvlarini rivojlantirish uchun topshiriqlar tasavvur, fantaziyani stimullaydi, ularni bajarishda yana intellekt ishga tushib, u qandaydir yangi narsani yaratishga yo'naltiriladi. Bu topshiriqlarni bajarishning dastlabki bosqichida texnik va san'at yo'nalishi talabalarini bu fanlarni integratsiyalash faoliyatga tayyorlash kerak, bunda o'qituvchi talabaning bilim ko'nika va malakaviy faoliyatini kerakli yo'nalishda borishini nazorat qilib turadi. Bunday imkoniyatni o'quv materialini reproduktiv usulda bayon etish ta'minlaydi. U talabalar tomonidan tushunarli, aniq bo'lgani uchun yaxshi qabul qilinadi. Mazkur metodning kamchiligi u muammo yechimini algoritmini va bilimlarni tayyor holda uzatishida hisoblanadi va to'g'ri keladigan pedagogic usullardan foydalaniladi. Misol tariqasida "G'oyalarini loyihala" usulini ko'rib chiqamiz.

G'oyalarini loyihala usuli texnik va san'at fanlaridan olingan bilim va malakalarni amaliy qo'llash, ularni tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualari o'qitish usulini amalga oshiradi. Talabalar yuqori darajada, bu g'oyalarini loyihala usulidan foydalanganda, yangi g'oyalarni muhokamaga tashlaganda, ularni oson va qulay loyihalashda, takomillashtirishda, har bir g'oyani loyihalashni samarali yechimini nazorat qilishda, har bir ishtirokchi talabani g'oyaviy loyihasini ko'pchilik bo'lib tahlil qilishda va xolislik va shaffoflik bilan bajarilgan ish natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

Muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlari o'qituvchisi tomonidan mavzular va ularning maqsadlari yoritiladi. Talabalarga bir kichik g'oyani loyihalashni integrativ yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Keyin bir mavzu bo'yicha sinergetik kompetentlik asosida variantlar taklif etadi va mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, variant turlari, ularning kutilayotgan natijalari va baholash mezonlarini sanab o'tadi. G'oyalar haqida ma'lumot beradi, o'z taklifini ham aytadi. G'oyalarni loyihalashni samarali va muammoli usullari va ularni tahlilini tavsiya etadi. Guruhda talabalar hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish tayyorgarligini tushuntiradi, talabalar orasida xayrihona munosabat muhitini yaratadi. Natijada talabalar sinergetik kompetentlikda metrik va pozitsiyon masalalarni ijodiy bajaradilar. Fan o'qituvchisi guruhni nazorat qiladi, lekin ularga rahbarlik qilmaydi: ta'lim oluvchilar o'zlari uchun

erkin g'oyalarini loyihalashadi. Bu orada xato qilsalar ham, o'zlari ishlashlariga ruxsat beradi. Har bir talaba g'oyaviy loyihalaridagi variantini to'g'ri javoblarini bir-birlariga tekshirtirib natijasini fan o'qituvchisiga ko'rsatishadi, g'oyaviy loyiha variantlarini noto'g'ri yoki to'liq bo'lmaganlarni aniqlaydi, sharhlaydi. Variantni noto'g'ri loyihalagan talabaning o'ziga xatosini topishni taklif qiladi. Agar u buni qila olmasa, boshqa talabalardan yordamga chaqiradi va g'oyani loyihalash varianti bo'yicha ishni yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. G'oyalarningni loyihala usuli orqali talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan variantlarni bajaradi. "G'oyalarningni loyihala" usulining asosiy vazifasi - talabalarni texnik va san'at fanlarini integratsiyalashda sinergetik kompetentlik asosida o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, fazoviy tasavvurlari orqali g'oyalar o'ylab topish, loyihalashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Haqberdiyev, B. R. The Role of Engineering Graphics and Design Sciences in the Study of the Analysis of Patterns in the Ancient Monuments of Uzbekistan. International Journal on Integrated Education, 4(7), 49-53.
- 2 Ҳақбердиев, Б. (2022). Интеграция в преподавании рисунка. Вестник Ташкентского государственного технического университета, 1(10).
- 3 Haqberdiyev, B. R. (2024). Broadening the horizons of students with the participation of integration. Current research journal of pedagogics, 5(01), 58-61.
- 4 Haqberdiyev, B. R., Abdujabbor o'g'li, A. I., & Soxibjon o'g'li, S. A. (2024). Integration processes in architects. American Journal Of Applied Science And Technology, 4(10), 40-42.
- 5 Haqberdiyev, B. R., & Abdurafikjonovna, A. H. (2024). Theoretical solutions for integrative teaching of fine arts and engineering graphics with various disciplines of still life, consisting of geometric shapes in pencil painting. International Journal of Advance Scientific Research, 4(03), 102-106.